



O‘ZBEKISTON PREZIDENTINING OZARBAYJONGA TASHRIFI BOSHLANDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Shavkat Mirziyoyev Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti
Ilhom Aliyevning taklifiga binoan 23-noyabr kuni amaliy tashrif
bilan Boku shahriga keldi.

Haydar Aliyev nomidagi aeroportda oliy martabali mehmonni Ozarbayjon Bosh vazirining birinchi o‘rinbosari Yaqub Ayubov va boshqa rasmiy shaxslar kutib oldi.

24-noyabr kuni davlatimiz rahbari BMTning Markaziy Osiyo iqtisodiyotlari uchun maxsus dasturi (SPEKA) birinchi sammiti tadbirlarida ishtirok etadi.

Tadbir kun tartibidan dastur doirasidagi ko‘p tomonlama hamkorlikni yanada kengaytirish, mintaqaviy loyihalarni qo‘llab-quvvatlash uchun Maqsadli fond tashkil etish, transport yo‘laklarini raqamlashtirish uchun “yo‘l xaritasi”ni qabul qilish, ishbiarmonlik tashabbuslarini ilgari surish va boshqa masalalar o‘rin olgan.

O‘za

XALQARO E‘TIROF

UNESCO BOSH KONFERENSIYASINING 43-SESSIIYASI SAMARQANDDA O‘TKAZILISHI

O‘ZBEKISTON VA MARKAZIY OSIYO
MINTAQASI NUFUZINI JAHON MIQYOSIDA
TARG‘IB QILISHGA XIZMAT QILADI

UNESCO Bosh konferensiyasining 2025-yildagi 43-sessiyasi Samarqand shahrida bo‘lib o‘tadi. Bu haqdagi qaror 7-22-noyabr kunlari Parijda bo‘lib o‘tgan UNESCO Bosh konferensiyasining 42-sessiyasi yakunida bir ovzodan qabul qilindi. Ushbu qaror O‘zbekiston uchun katta diplomatik yutuq bo‘ldi, chunki UNESCO so‘nggi 40 yil ichida birinchi marta o‘z sessiyasini boshqa davlat hududida o‘tkazilishini e‘lon qildi.

Davomi 2-betda

NUQTAYI NAZAR

BARCHA AMALDORLAR — XALQ XIZMATKORLARI

Yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lida juda katta islohotlarni amalga oshiryapmiz. Hech bir soha e‘tibordan chetda qolayotgani yo‘q. Lekin islohotlar “qog‘ozda” qolib ketmasligi kerak. Vazirlik va tarmoq rahbarlari, hokimlar joylarda ularning ijrosini so‘zsiz ta‘minlashi shart.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

Prezidentimiz 21-noyabr kuni yer resurslaridan oqilona foydalanish, yer hisobini yuritish hamda kadastr xizmatlarining sifatini yaxshilash masalalari yuzasidan o‘tkazgan videosektor yig‘ilishi yakunida vazirlik, hokimlik va idoralardagi ijro intizomi holatiga ham to‘xtaldi. Jumladan, ayrim rahbarlar raqam ortidan quvib, sifat, samaradorlik va talabchanlikni susaytirgani ko‘rsatib o‘tildi. Ijro intizomini ta‘minlash, barcha dastur, “yo‘l xaritasi” va loyihalarni o‘z muddatida bajarish lozimligi qat‘iy ta‘kidlandi.

Darhaqiqat, keyingi yillarda amalga oshirilayotgan nihoyatda keng ko‘lamli islohotlar har birimizdan katta mas‘uliyat va fidoyilikni, halollik va xalqchilikni talab qilmoqda. Qolaversa, o‘zgarishlarning yangi davrida hech kim befarq bo‘lmasligi, eskicha ish ko‘rish yangi jamiyatimizga



mutlaqo to‘g‘ri kelmasligini anglash biz ko‘zlagan maqsadlarga erishishning bosh mezoniga aylanishi kerakligini hayotning o‘zi oldimizga asosiy vazifa qilib qo‘ymoqda.

Davomi 3-betda

8-DEKABR — O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUSIYASI KUNI

BOLALARGA G‘AMXO‘RLIK VA E‘TIBOR

MILLIY TARAQQIYOTIMIZ KELAJAGI KAFOLATIDIR

Mamlakatimizda 2023-yil 30-aprel kuni o‘tkazilgan referendumda qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiya Yangi O‘zbekiston strategiyasini amalga oshirishning siyosiy-huquqiy asoslarini yaratib, milliy davlatchilik taraqqiyotining tarixiy muhim bosqichida davlat va jamiyatni yanada rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab berdi.

Konstitutsiyamizda jamiyat hayotining barcha jabhalaridagi eng muhim masalalar qatorida bola huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ta‘minlash vazifasi ham o‘z ifodasini topdi. Jumladan, Bosh qonunimizga asosan, bolalar mehnatining bolaning sog‘lig‘i, xavfsizligi, axloqi, aqliy va jismoniy rivojlanishiga xavf soluvchi, shu jumladan, ta‘lim olishga to‘sqinlik qiluvchi har qanday shakllari taqiqlandi.

Davomi 3-betda



HUUDDLAR HAYOTI

QUYOSHNI TONGDA DALADA KUTIB OLIB, SHU YERDAN KUZATIB QO‘YISHADI

Bir paytlar, aniqrog‘i, 2021-yil boshida mahallalarda hokim yordamchilari lavozimi joriy etilgan dastlabki vaqtlarda ko‘pchilik bu tizimga shubha bilan qaragandi. Yangi tizim sansolarlik, turli byurokratik to‘siqlar yaratishi ham bashorat qilingandi. Ammo bugun qo‘lga kiritilayotgan natijalar bu kabi shubha-gumonlarning asossiz ekanini ko‘rsatmoqda. Bugun mahallaning o‘zida turib, aholining turmush tarzini yaqindan his qilib, dardiga sherik bo‘lib, yelkama-yelka ishlashi tufayli hokim yordamchilariga ishonch ortmoqda.

Ilgari turli idoralarga kirib, kredit olish uchun sarson bo‘lgan fuqarolarning muammosi ayni paytda mahallaning o‘zida hal bo‘lmoqda.

Kuniga 200 tonna mahsulot

Koson tumanidagi Esaboy mahallasi dehqonlarini nafaqat Qashqadaryoda, balki boshqa viloyatlarda ham yaxshi bilishadi. Bu hududga kelsangiz, birota bekorchini ko‘rmaysiz. Odamlari bekorchilikni yoqirmaydi. Doimiy odati — quyoshni tongda dalada kutib olib, shu yerdan kuzatib qo‘yishadi. Azondan keng maydonda kimdir yer chopiq qilayotgan, yana birov urug‘ sepayotgan, kimdir suv tarayotgan bo‘ladi. G‘iybat qilishga vaqt yo‘q. Ertalabki qisqa hol so‘rashishdan so‘ng har kim o‘z ishi bilan andamon bo‘ladi. Tushlik maydon chetidagi daraxt soyasida — mo‘jazzina dasturxon atrofida o‘tadi.

Davomi 4-betda

BUGUNNING GAPI

SUV — MUQOBILI YO‘Q RESURS

SHUNDAY EKAN, UNGA BO‘LGAN MUNOSABATNI
KESKIN O‘ZGARTIRISH SHART



Suv resurslari mintaqamiz va mamlakatimiz uchun eng dolzarb masalalardan biriga aylanib borayotgani bugun hech kimga sir emas. Lekin biz undan unumli foydalanyapmizmi? Bu savolga javob qanday bo‘lishidan qat‘i nazar, bir narsa aniq, suvni tejab ishlatishni bilmasak, uning isrof bo‘lishining oldini olish choralarini kuchaytirmasak, ertaga yanada mushkul ahvolga tushib qolishimiz aniq. Shu bois, Qoraqalpog‘iston Respublikasida suv xo‘jaligida amalga oshirilayotgan ishlar atroficha tahlil qilinib, yo‘l qo‘yilayotgan kamchiliklarni bartaraf etish choralari ko‘rilmog‘da.

Davomi 4-betda

PREZIDENT QARORLARI — AMALDA

YANGILANAYOTGAN TUSHUNCHA VA QARASHLAR

TA‘LIM OLIISHGA INTILAYOTGAN XOTIN-QIZLAR
TIMSOLIDA NAMOYON BO‘LMOQDA

Ayolning zimmasida vazifa ko‘p, mas‘uliyat katta. Asosiysi, kelajak avlodni tarbiyalash. Farzandlarning sog‘lom va barkamol voyaga yetishida onalarning salohiyati, bilimi hamda tajribasi muhim.

Bugun jamiyatimizning har bir jabhasida xotin-qizlar faolligi kuzatilmoqda. Ayniqsa, ilm-fan sohasida muvaffaqiyatlarni qo‘lga kiritayotgan ayollar bilan haqli ravishda faxrlansak arziydi. Ilgari ayollar kasbi deyilsa, ko‘proq tikuvchilik, ta‘lim va tibbiyot tushunilar, bugun esa zamon talabi va yaratilayotgan sharoitu imkoniyatlarga muvofiq, kasblar ham kengaydi. Endi yurtimizdagi xotin-qizlar dizayn, to‘qimachilik,

axborot texnologiyalari, tarmoqlar iqtisodiyoti, marketing, tadbirkorlik, yuridik soha va talab yuqori boshqa yo‘nalishlar bo‘yicha faoliyat yuritaypti. Davlat boshqaruvida ham ularning salmog‘i ortayotir. O‘zbekistonlik ayollar nafaqat yurtimizda, balki dunyoning rivojlangan davlatlarida ham ilmiy tadqiqotlar olib bormoqda.

Davomi 5-betda



